O'QUVCHILARNI TO'G'RI KASB TANLASHIGA KO'MAKLASHISH

To'rayeva Sevara Tuymurodovna
Buxoro viloyati Peshku tumani 21 maktab psixologi
To'yeva Shahzoda Istam qizi
Buxoro viloyati Peshku tumani 15 maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarni kasbga to’g’ri yo‘naltirishdagi mavjud muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. To‘g‘ri kasb tanlash, ijtimoiylashtirish, o‘z-o‘zini baholash, texnologik ta’lim, uzluksiz tizim, hamkorlik, fanlararo aloqadorlik.

Ma’lumki, ta’lim-tarbiyada boshlang‘ich sinflar ta’limi alohida bosqich bo‘lib, bu davr bola shaxsini eng jadal rivojlanish davri hisoblanadi. Chunki 5-6 yoshdagi 10-11 yoshgacha bo‘lgan davrda bola shaxsi yetuklik va o‘smirlik davriga zamin yaratadi. Ayni shu davr bola shaxsining ko‘rish, kuzatish, idrok etish, tassavur va tafakkur qilishga o‘rganish jarayonidagi eng shiddatli bosqich bo‘ladi. Shu boisdan ham boshlang‘ich sinq o‘qituvchilari tayyorlaydigan pedagogika o‘quv yurtlari o‘quv rejalari va dasturlarining bugungi kun talabi darajasida bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim.

Bugungi kunda kasb-hunar maktablari o‘quvchilariga o‘z ixtisosliklari bo‘yicha, chuqur bilim berish, pedagogik kadrlarning bilim va malakasiga bog‘liq. Kasb-hunar maktablarida ta’lim berish davr talabidan kelib chiqib, pedagog kadrlardan, ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarini qo‘llash zamonaviy bilim va ko‘nikmalarini o‘quvchilar ongida shakllantirish , o‘z kasbiga fidoyi bo‘lish va malakasini uzluksiz ravishda oshirib borish talab etiladi.

Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining asosiy tamoyillari va maqsadli vazifalari sifatida maktab ta’lim tizimini tubdan yangilash; eng yuqori zamonaviy talablarga mos keladigan o‘quv-moddiy bazasi

va ta’lim standartlarini shakllantirish; Yashash joyidan qat’iy nazar, qishloq va shahar maktablarining moddiy bazasi hamda ta’minlanish darajasidagi tafovutlararini bosqichma-bosqich bartaraf etish asosida bolalarni ta’lim olishi uchun tinch shart - sharoitlar yaratish; o‘qituvchilarning mehnatini har tomonlama rag‘batlantirish belgilab berilgan.

Kasb tanlashga yo‘llash fanining maqsadi – bo’lajak kasbiy ta’lim o‘qituvchilariga o‘quvchilarni xalq xo’jaligining istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislarga bo‘lgan talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kasbga yo‘naltirishning eng samarali yo‘llarini ishlab chiqish va o‘rgatishdan iborat. Kasb tanlashga yo‘llash fanining vazifalariga kasb tanlashga yo‘llashning nazariy asoslari va asosiy tamoyillarini o‘rganish uni amalga oshirishning shakl va usullari kasb tanlashning eng samarali yo‘llarini ishlab chiqish kasb tanlashga yo‘llash tizimlari va bosqichlarini o‘rganish kasb tanlashga yo‘llashda ota-onalar, o‘quv yurti va ishlab chiqarish korxonalarining hamkorligi kabilar kiradi. Kasb tanlashga yo‘llash bosqichlariga quyidagilar kiradi. Oila, mahalla, maktab, maktab psixologi, sinf rahbari, tashxis markazi, kasb-hunar maktabi, akademik litseylar hamkorligi.

Kasbni to‘g‘ri tanlash - inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko‘p jihatdan kasbning qanchalik to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. Kasbni to‘g‘ri tanlash har bir maktab o‘quvchisining obyektiv vajlariga, qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo‘lishi uchun uning sog‘ligini, o‘zlashtirishini va xissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko‘ra ko‘prok qaror topadi va namoyon bo‘ladi. Maktab o‘quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo‘lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo‘lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo‘lida shaxsiy muddaolarini qondirish lozim. Buning uchun yuksak darajada ma’lumotli bo‘lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma’lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas.

Har bir shaxs har tomonlama kamol topishi lozim, buning uchun

maktablarda barcha imkoniyatlar mavjud. Bolalar yaxshi, aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani va shu bilan birga politexnik ma'lumotni ola turib, shu asosda o'zlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashlari mumkin. «Kim bo'lsam ekan?» muammosi «Qanday odam bo'lish kerak» muammosi bilan birgalikda hal qilinishi lozim. Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishga oid ishlarni ta'lim yo'llari orqali muttasil va izchillik bilan olib borish kerak. Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash - g'oyat muhim vazifadir. Shu boisdan yoshlarning kasb tanlash muammosi o'rta umumta'lim maktabi ishida katta o'rin tutadi.

«Kim bo'lsam ekan?» degan savol har bir yigit va qiz uchun eng asosiy muammolardan biridir. Odamning shundan keyingi butun hayoti ana shu muammoni hal qilishga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatda eng yuksak ko'rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayonida va uning natijalaridan qoniqish esa ijodkorlikni eng ko'p namoyon etish, eng yaxshi hissiy kayfiyatda bo'lish, tanho bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha hayotiy rejalarini bir muncha to'la amalga oshirish imkonini beradi.

Jamiyat hamma zamonlarda yosh avlodga ijtimoiy va kasbiy tajribani berish to'g'risida g'amxo'rlik qilib keldi. Insoniyat yashashining ilk davrlarida bu tajriba meros bo'lib qolar, avloddan - avlodga o'tar edi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan odamga nisbatan qo'yilgan talablar ham oshdi, bu esa turli kasblarda ishlash uchun xodimlarni tanlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zarurligini taqozo etdi.

Hozirgi vaqtda, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sharoitida maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning muhimligi ancha oshdi. Bir tomondan - ishlab chiqarishni murakkablashtirayotgan xilma-xil kasblar va mutaxassisliklarning mavjudligi, ikkinchi tomondan - bir qator barqaror shaxsiy xususiyatlari bilan ajralib turgan odamlarning mavjudligi kasblarni, o'quv yurtlarini tanlashda, kadrlarni ish o'rinlariga joylashtirishda va qayta

joylashtirishda ana shu omillarni, umuman inson omilini hisobga olishni qat'iy talab qiladi.

Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo‘ljal olishga o‘rgatish zarur. O‘qituvchi o‘quvchini darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba'zi bir xususiyatlarini, mayillarini payqab oladi, bu xislatlartga rivojlantirish yuzasidan tegishli ishlarni ado etgandan keyin, keyinchalik kasbni belgilashda asosiy omil bo‘lishi mumkin.

Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o‘z xususiyatlariga qarab kasbni to‘g‘ri tanlash, uni muvaffaqqiyatli ravishda o‘zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

O‘quvchilarning shaxsini o‘rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘qituvchi o‘quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste'dod nishonalarini rivojlantirish metodlarini topaolishi, uning xulq - atvoridagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin va x.k. Ba'zi bolalarda kasbga moyillik yaxshi namoyon bo‘ladi, ko‘pchilik bolalarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. O‘qituvchining boladagi iste'dod nishonalarini aniqlashi, bularni o‘quvchining o‘ziga va uning ota-onasiga aytib berishi, bolaning qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko‘maklashishi muhimdir. Yuqorida ta'kidlab o‘tilganidek, kasbga yo‘naltirish ishi - o‘quv jarayonining uzviy tarkibiy qismidir. Quyi sinflardan boshlanadigan bu ish jamiyat uchun zarur, har bir kishining xususiyatlariga mos kasblarga barqaror qiziqishni tarbiyalashga yordam beradi. Mehnatga qiziqishning mavjudligi va mehnat qilishga shaylik - shaxs yetukligining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Sinfdan va maktabdan tashqari ish o‘quvchilarni kasb-korni ongli ravishda tanlashga, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarish, fan texnika borasida va shu kabi sohalarda ularda ishga qiziqishni shakillantirishga ko‘p jihatdan yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O‘zMU, 2003. 156-b
2. Yusupova F. I. O‘quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. “Xalq ta’limi” jurnali. 2005. №5. 90-93-b.
3.Maxmudova .D. “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga oid pedagogi k faoliyat element lari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash”. Xalq ta’limi jurnali. №3 son, 57-58 bet. 4. https://uzbekistan.ureport.in/story/364/